


«TASDIQLAYMAN»

Jizzax viloyat hokimi
o'rinbosari

B. Nazarov
« » 2022 y.

«KELISHILDI»


Jizzax viloyat qurulish
Bosh boshqarmasi boshlig'i

M. Tursunov
« » 2022 y.

«KELISHILDI»

Jizzax viloyat hokimligi
"Yagona buyurtmachi xizmati"
Injiniring kompaniyasi direktori

X. Xasanov
« » 2022 y.

«KELISHILDI»

Sharof Rashidov tuman hokimi
o'rinbosari

N. Imomqulov
« » 2022 y.

**“Jizzax viloyati Sharof Rashidov tumani Saroylik MFY Ipak yo‘li ko‘chasi
0,6 km sement-beton qoplamali ichki yo‘llarni qurish”obyekti uchun
loyiha ishlab chiqishga**

LOYIHA TOPSHIRIG' I

1	Buyurtmachi	Jizzax viloyat hokimligi “Yagona buyurtmachi xizmati” Injining kompaniyasi
2	Loyixalashtirish uchun asos	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 18 maydagi PQ-249-son <u>“Sement-beton qoplamali avtomobil yo‘llari tarmog‘ini kengaytirish chora-tadbirlar to‘g‘risida gi”</u> qarori va Jizzax viloyat hokimining 2022 yil 4 iyundagi №273-3-0-Q/22 sonli qaroriga asosan
3	Ajratilgan mablag‘	364,600 mln.so‘m
4	Qurilish turi	Qurilish
5	Moliyalashtirish manbai	Respublika byudjeti mablag‘laridan
6	Bosh loyihalash tashkiloti	Tender savdolari orqali aniqlanadi.
7	Bosh pudratchi	Tender savdolari orqali aniqlanadi.
8	Obektning loyihaviy quvvati	1. Saroylik MFY Ipak yo‘li ko‘chasi 0,6 km bajariladigan ish turlari: Yo‘l asosini ishlab chiqish, Sement-beton qoplama yotqizish, Xaqiqiy parametrlari loyiha ishlari davomida aniqlanadi va loyiha-smeta xujjatlarida ko‘rsatib o‘tiladi.
9	Loyihani ishlab chiqish muddati	Shartnomada aniqlanadi.
10	Obektning joylashgan xududi	Sharof Rashidov tumani.
11	Qurilishni boshlash muddati	2022 y.
12	Qurilishni tugallash muddati	2022 y.
13	Loyihalash navbatlari va bosqichlari	Bir bosqichda.
14	Obektni resurslar bilan ta‘minlash	Mahalliy qurilish materiallaridan foydalanishga ustuvorlik berilishi ishchi loyihada inobatga olinsin.
15	Joyning tavsifi	Tekislik
16	Smeta hujjatlarini ishlab chiqishga talablar	Smeta xujjatlarida qurilishning boshlang‘ich narxi joriy narxlarda xisoblab chiqilishi lozim.
17	Yo‘l qoplamasi turi	Sement-beton.
18	Yo‘l to‘shamasining mustahkamligiga talab	Avtomobilning eng ko‘p yuklangan yakka o‘qidagi Og‘irlik – 10 t ga hisoblansin Asos: Avtomobil yo‘llari SHNQ 2.05.02-07ning 4.2-bandi
19	Loyihalanadigan yo‘l qismining boshi	Sharof Rashidov tuman markazi Bosh rejasida ko‘rsatildi va mutasaddi tashkilotlar tomonidan tasdiqlandi, kelishildi.
20	Loyihalanadigan yo‘l qismining oxiri	Sharof Rashidov tuman markazi Bosh rejasida ko‘rsatildi va mutasaddi tashkilotlar tomonidan tasdiqlandi, kelishildi.

21	Texnik jarayonlar, jihoz va uskunalarga talablar	Amaldagi meyoriy xujjatlar talablari asosida loyihalaniadi.
22	Nogironlarga shart-sharoitlar yaratishga talablar	SHNQ 2.07.02-07 talablariga mos ravishda qilinadi.
23	Muhandislik izlanuvchilari zaruriyati	Topogeodeziya, muhandislik geologiya va diagnostika ishlari bajarilsin.
24	Qurilishning alohida shart-sharoitlari	Seysmiklik darajasi – QMQ 2.01.03-96 ga binoan qabul qilinadi. Tuproq cho‘kishi dala qidiruv ishlari asosida aniqlanadi. Qurilish konstruksiyalari bo‘yicha texnik-muhandislik tekshirish ishlarini bajarish.
25	Asosiy ko‘rsatkichlar va texnik talablar	Trassa o‘qini loyihalashda mavjud yo‘l poyi va yo‘l to‘shamasi konstruksiyasidan maksimal foydalanilsin. Yo‘l rejasi, yo‘l poyi va yo‘l to‘shamasining andozaviy ko‘ndalang kesimini tegishli tashkilotlar va buyurtmachi bilan kelishgan xolda qabul qilinsin. Qatnov qismi, mustaxkamlangan yo‘l hoshiyasi, yo‘l cheti va yo‘l poyining kengligi SHNK 2.05.02-07 “Avtomobil yo‘llari” talablariga mos ravishda bajarilsin. O‘zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi tomonidan 2022 yilda tasdiqlangan shaxar va boshqa aholi punktlaridagi ichki ko‘chalarning transport qatnovi qismlarida qattiq yo‘l qoplamalarini loyihalash va qurish yo‘riqnomasi asosida ishlansin.
27	Qurilishni tashkil etish loyihasini ishlab chiqish	SHNK ga asosan to‘liq hajmda ishlab chiqilsin.
28	Topshirish qabul qilish tartibi	Ishchi loyiha ushbu topshiriq talablariga binoan qabul qilinadi. Ishchi loyiha 4 nusxada qog‘oz va 1 nusxada elektron shaklda amaldagi standartlar bo‘yicha rasmiylashtirilgan bo‘lishi kerak.

Buyurtmachi:

Jizzax viloyat hokimligi “YBX” IK bosh muhandisi:

A.Sariboyev

Tayyorladi:

Jizzax viloyat hokimligi “YBX” IK bo‘lim boshlig‘i:

M.Aliyev